

Date: 23rd June-2025

**BIRLAMCHI TIBBIYOT MUASSASALARIDA BOLALAR GURUHLARI BILAN
ISHLASHDA TIBBIYOT HODIMLARINING VAZIFALARI**

Saminova Shodyona A'zamjon qizi

Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti magistri

yona.saminova@gmail.com

Mamathanova Gulnora Maxmudovna

Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti (PhD)

gulnora_statist@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni o'sish va rivojlanishi monitoringi sog'liqni saqlash tizimidagi ona va bola sog'ligini muhofaza qilish sohasida olib boriladigan muhim tadbirlardan biri ekanligi, shuningdek, 0 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning jismoniy va psixomotor rivojlanishining muhim bosqichida birlamchi bo'g'in hodimlarining olib boradigan muhim vazifalari hamda bu davrda bolalarda jismoniy va ruhiy o'sish jarayonlarini nazorat qilish bo'yicha belgilab berilgan ustivor masalalar bo'yicha so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: BTM, monitoring, strategiya, genetik, egzogen, endogen, EGK.

Dolzarbligi. Hozirgi kunda dunyo miqiyosida global muammolardan biri bo'lgan bolalar jamoasining salomatlik holatini himoyalash va mustahkamlash, ularning jismoniy va aqliy jihatdan etuk komil inson bo'lib shakllanishini ta'minlash har bir jamiyatning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda Sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-tamoyillarni qisqartirish, aholiga xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining ish samaradorligini ta'minlash, shuningdek, ushbu yo'nalishda qabul qilingan raqamli transformatsiya qilish dasturlarini samarali tadbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustivor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarish ustivor vazifa hisoblanadi. Ushbu strategida ona va bola salomatligini saqlash va ularga kompleks ravishda parvarish qilishga alohida urg'u berilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28- yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida», 2020 yil 12 noyabrda PF-6110-son «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, "Sog'liqni saqlash tizimini tashlik etishning yangi modeli va



Date: 23rd June-2025



Davlat tibbiy sug'urta mehanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora –tadbirlari tog'risida" gi 4890-sonli president qarori, 2022-yil 25-apreldagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samatadorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora –tadbirlar tog'risida"gi 215-sonli president qarori, 2022-yil 27-iyuldagi " Aholi orasida profilaktik ko'riklari, skrining dasturlari va patranajni amalga oshirishni yanada takomillashtirish choralari tog'risida" gi 210-sonli SSV ning buyrug'ida erta bolalik davri ahamiyati va bolalarning salomatligini saqlashga alohida urg'u berilgan.

Maqsad: Hozirgi kunda butun dunyoda bolalarning o'sish va rivojlanishini nazoratga olish va bu jarayonlarda olib boriladigan ishlarni tartiblash, olingan natijalar bo'yicha statistik taxlillar qilish, hamda bolalarni kelgusi hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan muammolarni erta aniqlash masalalari keng o'rganilmoqda. Tadqiqotning maqsadi shundan iboratki, Yangi O'zbekistonda bolalar davlatning eng asosiy va muhim bo'g'inini tashkil etadi va jamiyatning mehnat, reproduktiv va intellektual bo'lagini har tomonlama o'rganish va olib borilayotgan ishlar samaradorligini taxlil qilishdan iborat.

Material va usullar: **Tadqiqot davomida** birlamchi bo'g'inda yuritiladigan hisob hujjatlari, bolalarning rivojlanish kartasi, oila daftari, va patranaj hamshira tomonidan yuritiladigan amaldagi hujjatlar bilan ishlandi. Tadqiqot natijalari: 0 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davr bolalarning jismoniy va psixomotor rivojlanishining muhim bosqichidir. Bu davrda bolalarda jismoniy va ruhiy o'sish jarayonlari juda tez amalga oshadi. Inson hayotining bu muddatida uning salomatligiga turli omillarning ta'siri shakllanadi. Hozirgi kunda butun dunyoda bolalarning o'sish va rivojlanishini nazoratga olish va bu jarayonlarda olib boriladigan ishlarni tartiblash, olingan natijalar bo'yicha statistik taxlillar qilish, hamda bolalarni kelgusi hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan muammolarni erta aniqlash masalalari keng o'rganilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bolalarning sog'lom o'sish va rivojlanishi uchun to'sqinlik qiluvchi omillarni erta aniqlash va ularni bartaraf qilish borasida qizg'in ishlar qilinmoqda. 0 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'sish va rivojlanishining kuzatuvi bolalardagi turli kasalliklarning erta aniqlanishi va ularni oldini olish imkonini beradi. Jismoniy rivojlanishni muntazam nazoratga olish ko'krak yoshidagi bolalarni normada o'sib rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, ya'ni erta yoshdagi bolalar ozuqa statusini buzilishi, turli kasalliklar paydo bo'lishini aniqlash va ularni bartaraf qilish, umumiy qilib olinganda endogen va egzogen omillarning ta'sirini o'rganishni maqsad qilib olgan.

Butun bolalik davomida o'sish uzluksiz kechadi. O'sishning sekinlashuvi yoki to'xtashi go'daklikdagi va bolalikdagi ko'pgina kasalliklarning birinchi belgisi hisoblanadi. O'sish monitoring o'sishdagi kamchiliklarni erta bosqichlarda aniqlashga hismat qiladi. O'sish monitoring ma'lum vaqt oralig'ida qayta-qayta o'tkaziluvchi vazn, bo'y, bosh aylanasi o'lchash va rivojlanishni baholashni o'z ichiga oladi. O'sish monitoring tug'ilishdan keyin darhol boshlanishi kerak. Bola 15 kundan so'ng va 1 oydan keyin qayta tekshirilishi lozim. Monitoring bolaning 0 yoshdan 1 yosh o'rtasida 1 oy oralig'ida, 1 yoshdan 3 yoshgacha oraliqda har 3 oyda, 3 va 5 yoshlik davrlar oralig'ida har 6 oyda,

Date: 23rd June-2025

so'ngra esa har yili davom ettiriladi. Hayotning birinchi yilida vaznni baholash oziqlanish holatini baholash uchun amalga oshiriladi. Tug'ilgan bolaning bo'yi, vazni bo'lajak onaning ovqatlanishi, yashash sharoiti va salomatlik holatiga chambarchas bog'liq. Chaqaloqning o'sish va rivojlanishida nuqsonlar mavjudligiga gumon qiluvchi ota-onalar bolani tibbiyot muassasasiga kechiktirmay olib borishlari zarur.

Rivojlanish monitoringi farzandning vaqt o'tishi bilan qanday o'sishi va o'zgarishini va bolaning o'ynash, o'rganish, gapirish, o'zini tutish va harakat qilishda odatiy rivojlanish bosqichlariga mos kelishini kuzatadi. Rivojlanish monitoringida ota-onalar, bobo-buvilar, erta yoshdagi bolalar va boshqa tarbiyachilar ishtirok etishlari mumkin. Bolani tekshiruvga olib borilganda, shifokor yoki hamshira rivojlanish monitoringini olib boradi. Shifokor yoki hamshira bolaning rivojlanishi haqida ota-onalarga savollar berishi yoki bolaning rivojlanayotganligini va muhim bosqichlarga erishayotganini bilishi uchun ota-ona bilan ochiq, ishonchli muloqot o'rnatishi muhimdir. O'tkazib yuborilgan muhim bosqich muammoning belgisi bo'lishi mumkin, shuning uchun shifokor yoki boshqa mutaxassis batafsilroq ko'rib chiqishi kerak.

0 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda tana a'zolarining antropometrik ko'rsatkichlarining yoshga va jinsga bog'liq individual farqlari mavjudligi aniqlangan. 0 yoshdan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarning bo'y, vazn va ko'krak qafasi o'lchamlari ko'rsatkichlarida unchalik katta farq sezilmasada, 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhlarida qiz bolalarda, o'sish sur'atlarini, o'g'il bolalarga nisbatan tezlashuvi yoki yuqorida aniqlangan o'lchamlar kattaliklarini ortishi kuzatiladi. Bolalarda o'sish va rivojlanish yoshdagi o'zgarishlarning sabablari o'rganilganda tana vazni o'sishining sekinlashishi va to'xtashining asosiy sabablariga yetarlicha ovqatlanmaslik, e'tibor va g'amxo'rlikning yetishmasligi, rag'batlantirishning yo'qligi, yuqumli(parazitar)kasalliklar, qaytalanuvchi diareya va surunkali kasalliklar bolalarning rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'lgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda erta bolalalik davridagi yosh guruhlariga ta'sir qilayotgan omillar genetik(endogen) va atrof –muhit(ekzogen) omillarga bog'liqdir. Genetik omillarga yaqin qarindoshlik nikohlari, ayollardagi EGK, nasldan–naslga o'tuvchi patologik nuqsonlar sabab qilib olinsa, homiladorlik davridagi ayollarning ruhiy buzilishlar, Bolalarning o'sishi uchun ta'minlangan ijtimoiy sharoitning yetishmasligi, bolalar va ota-ona o'rtasida ruhiy bog'liqlikning yo'qligi, bolalarning ovqatlanish jarayoniga ahamiyatning kamligi bolalarning sog'lom o'sib-rivojlanishiga ekzogen ta'sir qilayotgan omillar sifatida aniqlangan. Tadqiqot olib borilgan 2351 nafar 0 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning 0.2 % (5 nafar)da endogen ta'sirlar natijasida o'sish va rivojlanishdan orqada qolishi aniqlangan. 0.9 % (22 nafar) bolalarda esa turli ekzogen omillar ta'siri kuzatilgan. 9% bolalarda ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf omillari aniqlanib bartaraf qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, birlamchi bog'in faoliyati jarayoniga bolalar guruhida, ya'ni erta bolalalik davridagi aholi guruhini sog'lom o'sish rivojlanishini sifatli va o'z vaqtida nazorat qilishi muhim ekanligi, bu esa bolalarning o'sish va rivojlanishiga



Date: 23rd June-2025

ta'sir qiluvchi turli omillarni aniqlash, bolalar orasida turli kasalliklarni oldini olish bo'yicha profilaktik choralar ko'rish bolalar orasida kasallanish darajalarini kamaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»
2. PhD Mamatxanova G. Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida tibbiy hisob hujjatlarini maqbullashtirish. 2024-yil. Avtoreferat. 62 bet.
3. Nazirjonov O. Ubaydullayev R. Abdumuhtarova M. Ibragimova X. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishining o'lash suratlarini qiyosiy baholash. ADMI. Tesis.
4. Komilov Sh. "Farg'ona viloyati tog' oldi hududlarida yashovchi 7-12 yoshli bolalarni antropometrik ko'rsatgichlarini yoshga va jinsga bog'liq ko'rsatgichlari" //magistrlik ishi
5. Кахаров З. А., Абдурахимов А. Х. Сравнительная оценка темпы роста физического развития детей младшего школьного возраста //re-health journal. – 2019. – №. 4. – С. 13-19.

